



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI  
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-106-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**Tumanda oilaviy ajrimlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to‘g‘risida**

Tuman hokimi o‘rinbosari - oila va xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i N.Mamadiyevaning “Tumanda oilaviy ajrimlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to‘g‘risida”gi hisobotini tinglab, mazkur masalaning tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan muhokama qilinganligini e’tiborga olib hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. Tumanda oilaviy ajrimlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to‘g‘risida tuman hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i N.Mamadiyevaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi (N.Mamadiyeva), tuman sektor rahbarlari hamda aloqador tashkilot va idoralar bilan birgalikda:

- FHDYO bo‘limiga nikohdan ajralish haqidagi ariza bergan, ajrim yoqasiga kelib qolgan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazish, ularni yarashtirish choralarini ko‘rish;

- yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, er-xotin munosabatlari haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida davra suhbatlari,

o‘quv kurslari tashkil etish;

- fuqarolar o‘rtasida ajrimlarning oldini olish maqsadida ariza beruvchilarni mahalla fuqarolar yig‘inlarida tashkil etilgan “Ayollar jamoatchilik kengashi” maslahatxonalarida muhokama yig‘ilishlari o‘tkazish;

- tumandagi ta’lim muassasalarida, mahallalarda yoshlar o‘rtasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, voyaga yetmagan o‘smir qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarining oldini olish borasida reja-grafik ishlab chiqish va targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish;

- aholining reproduktiv salomatligini saqlash bo‘yicha profilaktika tadbirlarini kuchaytirish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-tuman hokimining matbuot kotibi (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi tahririysi (B.Elmurodova)ga ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda oila va uning muqaddas qo‘rg‘on ekanligini, ajrimlar yoqimsiz oqibatlar olib kelishini targ‘ib qiluvchi materiallarni muntazam berib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi (N.Mamadiyeva) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining yooshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Sattorova) zimmalariga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi



Xudoyberganov B.X